



SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA VAQT VA KO'NGIL IZTIROBLARI TASVIRI

Saparova Maxliyo,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207461>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining atoqli vakili Shavkat Rahmon she‘riyatida vaqt va ko‘ngil iztiroblarining aks etishi tahlil etiladi. Shoir jamiyatning sezgir kuzatuvchisi sifatida inson ruhiyatining murakkab tomonlarini yoritib, xalqning dardu iztiroblarini o‘z ijodida aks ettiradi. Ayniqsa, “Baxt so‘zi” she‘rida baxtning shaxsiy emas, balki jamiyat bilan chambarchas bog‘liqligi ta‘kidlanadi. Maqolada shoirning o‘lim mavzusiga yondashuvi ham tahlil qilinib, uning “O‘lim birlashtirar begonalarni” she‘rida insonlar o‘lim oldida birlashishi, hamjihatlik va o‘zaro mehr-oqibat hissi ustuvor ekani ochib beriladi. Shavkat Rahmon she‘riyatidagi falsafiy mushohadalar, umr va o‘tkinchilik mavzusi ham yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** obraz, she‘r, janr, peyzaj, adabiyot, ruhiyat, lirik men.*

Adabiyot inson qalbining eng nozik qirralarini ochib beruvchi sehrli kuchdir. Shoir esa jamiyatning eng sezgir va og‘ir yuk ko‘taruvchisi sifatida nafaqat o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etadi, balki xalqning ruhiy holatini, dard-u quvonchini, ichki kechinmalarini ham qog‘ozga ko‘chiradi. Shavkat Rahmonning “Baxt so‘zi” she‘ri aynan shunday mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olgan ijodkor ruhiyatini aks ettiradi. She‘rda oddiy ko‘ringan “baxtiyorman” degan so‘zni aytish uchun inson kata ichki kurashni bosib o‘tishi kerak. Shoirning aytishiga ko‘ra, bu so‘z tilning uchida tursa ham, uni aytish har doim ham oson emas. Chunki inson o‘z baxtini aytishda boshqalarning iztirobini unutish mumkin, ularning dard-u hasratiga beparvolik qilishi mumkin. Shavkat Rahmon bu yerda shoirning jamiyat oldidagi vazifasini ham alohida ta‘kidlaydi. Shoir o‘z baxtini hammadan oldin e‘lon qilishga haqli emas, u avval xalqning baxti uchun kuyib-yonishi, ularning iztirobini o‘z yuragidan o‘tkazishi lozim. Shoirilar faqat go‘zal so‘zlarni emas, balki xalq dardini his qiluvchi, uning og‘riqlarini o‘z yuragidan o‘tkazuvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. She‘r teran falsafiy mushohadalar bilan boyitilgan. Shoir o‘z baxti haqida gapirishdan oldin uning boshqa odamlarga qanday ta‘sir qilishini o‘ylaydi. Chunki baxt shaxsiy holat emas, chambarchas bog‘liq. Insonlar orasida baxtsizlar bor ekan, baxt haqida bemalol so‘zlash hamisha ham oson emas. Haqiqiy ijodkor o‘z xalqining baxti uchun yashaydi. Shoir xalq bilan nafaqat quvonchda, balki iztiroblarda ham birga bo‘lishi kerak.



O‘zbek she’riyatida o‘lim mavzusi turlicha talqin etilgan. Ba’zi shoirlar uni qo‘rquv manbai sifatida ko‘rsatsa, ba’zilar uni fojia, ayriliq yoki umrbod g‘am bilan bog‘laydi. Ammo Shavkat Rahmonning “O‘lim birlashtirar begonalarni” she’ri o‘limning boshqa bir jihatini – uning insonlarni birlashtirish xususiyatini o‘rtaga chiqaradi. Shoir o‘limni yo‘qotish sifatida emas, balki insonlarni o‘ziga qaytaradigan, ularni bir-biriga yaqinlashtiradigan kuch sifatida tasvirlaydi. She’ning ilk misralaridayoq shoir o‘limning insonlar orasidagi munosabatlarni o‘zgartirishini ta’kidlaydi:

O‘lim birlashtirar begonalarni,
Odamlar bir yoqdan yig‘ila kelar,
Bir ko‘zdan tikilar “jabrlangan”ga ,
Faqat bir yurakdan yigilar kelar.

Bu misralar insonlarning munosabatlarining real qiyofasini ochib beradi. Hayotda beparvo bo‘lgan odamlar har o‘lim oldida birlashadilar. Odatda har kim o‘z g‘ami bilan band bo‘lsa ham, kimdir vafot etganida hamma bir joyga toplanadi, ularning nigohlari bir nuqtaga qaratiladi, ammo yuraklar birdaniga og‘riydi. She’rda shoirning “yirtqichmas, dushmanmas odamga odam” misrasi inson hayotda yovuzlikka moyil bo‘lishi mumkin, ammo o‘lim oldida u hamisha oddiy odam bo‘lib qoladi degan fikrni ilgari suradi. She’ning yakuniy qismida shoir:

Mana, begonalar, beparvolar yo‘q,
Nihoyat odamlar birodar – tengdir,
O‘limga bosh egdim, qo‘rqqanimdanmas,
Hurmat qilganimdan boshimni egdim

deya, shoir o‘limga bish egadi, lekin bu qo‘rquvdan emas, hurmatdan kelib chiqadi. Shoirning fikricha, o‘limni yengish uchun undan qo‘rqish emas, balki uni anglash va hurmat qilish kerak.

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin qoldirgan ijodkor – Shavkat Rahmonning “Umr – qumsoat” she’ri inson hayotining o‘tkinchiligi va inson qalbining to‘lib-to‘lmasligini tasvirlab, o‘quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi. She’ning boshidan oxirigacha davom etadigan asosiy g‘oya – umr oqimi va insonning ko‘ngli. Shoir umrni qumsoatga qiyoslab, uning bir tomonlama oqib ketishini va ortga qaytarib bo‘lmasligini tasvirlaydi. Qumsoatning har bir donachasi hayotimizdagi lahzalar timsoli. Kim uchundir tez oqadi, kim uchundir sekin. Faqatgina oldimizdagi har bir lahzaning qadriga yetishimiz kerak. Inson hayoti davomida qilgan va qilmagan ishlarini sarhisob qilar ekan, unga eng og‘ir haqiqat ayon bo‘ladi: “Umrni qumsoat

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



singari to‘nkarib bo‘lmas". Bu bilan shoir bizga faqat umrning o‘tkinchiligini aytmaydi, balki insonning har bir daqiqasini qanday o‘tkazishi kerakligi borasida ogohlantiradi va "Ko‘nglim to‘lgani yo‘q bilganlarimdan" deya afsus qiladi. Chunki ba’zida yangi bilimlar insonda yana-da ko‘proq bilish istagini uyg‘otadi. Shoir ham bilganlari orqali chin ma’noda qanoatlana olmayotganligini sezish mumkin.

Go‘zallar yodimdan o‘chdilar bir-bir
Do‘stlarim bag‘rimdan ko‘chdilar bir-bir
Yillarim uzilib tushdilar bir-bir
Faqat bu ko‘ngilni to‘ldirib bo‘lmas

misralari orqali shoir hayotida ayriliq, yo‘qotishlar sodir bo‘lganini va shoirning ichki olami bo‘shab borayotgani faqat bu bo‘shliqni hech narsa bilan to‘ldirib bo‘lmasligini aytib o‘tadi. Shoir she’rni

Mendan nima qolur, abadiy nurlar
Barq urib yashnagan dunyo tomonda?
Urinib-surinib, sira to‘lmagan
Bir ko‘ngil qoladi qolsa ham mendan

deya yakunlar ekan, hayotning o‘tkinchiligi bilan abadiy hayot o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi va shoir hayotdan ketganidan keyin moddiy jihatdan emas balki manaviy jihatdan qoladigan narsa haqida gapiradi. Bunda shoir umri davomida shunchalik ilm izlasanishiga qaramay, “mendani nima qoladi?” – deya o‘ziga savol beradi va abadiy borliqdan o‘zining izsiz yo‘qolib ketishidan xavotir oladi. “Sira to‘lmagan ko‘ngil” esa qoniqmagan, hali ham nimadir izlayotgan yuakni tasvirlaydi. Yani inson hayoti davomida qanchalik izlanmasin, uning qalbi to‘liq mukammallikka yetib bormaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳмон Ш. Рангин лаҳзалар. – Тошкент: Шарқ, 1978. – 92 б.
2. Раҳмон Ш. Гуллаётган тош. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – 85 б.
3. Раҳмон Ш. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 215 б.
4. Раҳмон Ш. Абadiят оралаб. – Тошкент: Моварауннахр, 2012. – 314 б.
5. Q.Mamiraliyev. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi. Filol. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ...diss. – Toshkent: 2024. – 160 b.
6. Q.Mamiraliyev. Shavkat Rahmon ijodining shakliy-g‘oyaviy xususiyatlari // Guliston davlat universiteti axborotnomasi, 2024. № 3. -B. 182-186.